

## **“Zukko kitobxon” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida NIZOM**

### **I bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga biriktirilgan tuman(shahar)larning 4-sektoridagi “Ziyo ulash” aksiyasi doirasida ochilgan kutubxona joylashgan mahallada istiqomat qiladigan 14 yoshga to‘lgan hamda 30 yoshdan oshmagan yoshlar o‘rtasida “Zukko kitobxon” tanlovini (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovning maqsadi yoshlar orasida kitobga bo‘lgan qiziqishni oshirish, teran fikrlash hamda ularning dunyoqarashini kengaytirish, o‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, shu bilan birga, “Ziyo ulash” aksiyasining mantiqiy davomi sifatida keng jamoatchilikka ziyo ulashish hisoblanadi.

3. Tanlovda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga biriktirilgan tuman(shahar)larning 4-sektorida “Ziyo ulash” aksiyasi doirasida ochilgan kutubxona joylashgan mahallada istiqomat qiladigan 14 yoshga to‘lgan hamda 30 yoshdan oshmagan yoshlar (keyingi o‘rinlarda – ishtirokchi) ishtirok etishi mumkin.

Tanlov quyidagi **uch bosqichda** tashkil etiladi:

- birinchi bosqich – tuman (shahar);
- ikkinchi bosqich – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar;
- uchinchi bosqich – Respublika.

4. Tanlovni yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek tanlovda g‘oliblarni rag‘batlantirish uchun Respublika va hududiy tashkiliy qo‘mitalar tashkil etiladi.

Tashkiliy qo‘mita rais, rais o‘rinbosari, a‘zolar va kotibdan iborat jami 5 kishilik tarkibda shakllantiriladi.

Qoida tariqasida, a‘zolar tarkibi, adliya organlari xodimlari, o‘qituvchilar, ilm-fan va adabiyot sohasi vakillaridan iborat bo‘ladi.

5. Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchilar ro‘yxati tuman (shahar) adliya bo‘limi tomonidan shakllantiriladi. Bunda, har bir tuman (shahar)dan kamida

10 nafar ishtirokchilar tanlovga jalb qilinadi va ularning ro'yxati Respublika tashkiliy qo'mitasiga 20-aprelga qadar taqdim etiladi.

Ro'yxatdan o'tgan ishtirokchiga shaxsiy identifikatsiya raqami beriladi.

## **II bob. Tanlovni o'tkazish bosqichlari va tartibi**

### **1-§. Birinchi bosqich – tuman (shahar) bosqichini o'tkazish tartibi**

6. Tanlovning birinchi bosqichi 15-iyul kuni tuman(shahar) adliya bo'limi tomonidan o'tkaziladi.

7. Tanlovning **birinchi bosqichi** intellektual o'yin (zakovat shaklida) (keyingi o'rinlarda – Intellektual o'yin) shaklida o'tkaziladi.

8. Intellektual o'yin savollari ushbu Nizomning 1-ilovasida tasdiqlangan adabiyotlar asosida Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan tuzilib, Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Savollar Intellektual o'yin boshlanishidan 2 soat oldin hududiy tashkiliy qo'mitaga elektron shaklida taqdim etiladi. Hududiy tashkiliy qo'mita savollarni chop qilib konvertga soladi va muhrlaydi.

Savollar hududiy tashkiliy qo'mita tomonidan Intellektual o'yin boshlanishi arafasida hamma ishtirokchilar oldida ochiladi.

9. Intellektual o'yinda ishtirokchilarga (yakka tartibda) 25 ta savol o'qib eshittiriladi va ularning javoblarini Hakamlar hay'atiga taqdim etish uchun yordamchilar adliya organlari xodimlari orasidan belgilanadi.

10. Savollar boshlovchi tomonidan beriladi. Ishtirokchilar berilgan savolga 1 daqiqa ichida javob beradi. Vaqt Hakamlar hay'ati tomonidan nazorat qilinadi.

11. Ishtirokchilar o'z javoblarini shaxsiy identifikatsiya raqami ko'rsatilgan varaqchalarga yozadi hamda yordamchilar orqali javoblar Hakamlar hay'atiga taqdim etiladi.

12. Intellektual o'yinda savolga ishtirokchilar tomonidan faqatgina bitta javob beriladi hamda har bir to'g'ri javob 1 balldan baholanadi.

13. Ishtirokchilarning ballari bir xil bo'lib qolganda, qo'shimcha 1 ta savol beriladi. Qo'shimcha savollar g'olib aniqlangunga qadar o'ynaladi.

14. Intellektual o'yin boshlovchi tomonidan natijalar e'lon qilingandan keyin tugagan hisoblanadi.

15. Hakamlar hay'ati ishtirokchilarning natijalarini hisobga olgan holda 1-3-o'rin g'oliblarni e'lon qiladi.

16. Intellektual o'yinda 1-o'rinni olgan ishtirokchi keyingi bosqichda ishtirok etish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

17. Intellektual o'yinning yakuni Hakamlar hay'ati tomonidan baholash varaqalari va bayonnoma asosida rasmiylashtiriladi.

## **2-§. Ikkinchi bosqich – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichini o‘tkazish tartibi**

18. Tanlovning ikkinchi bosqichi 22-iyul kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari hamda hududiy tashkiliy qo‘mitalar tomonidan o‘tkaziladi.

19. Tanlovning **ikkinchi bosqichi** quyidagi ikki yo‘nalishda o‘tkaziladi:  
**birinchi yo‘nalish** – intellektual o‘yin;

**ikkinchi yo‘nalish** – asar tahlili shaklida o‘tkaziladi.

20. **Birinchi yo‘nalish** – Intellektual o‘yin ushbu Nizomning 7-14-bandlarida belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

21. **Ikkinchi yo‘nalish** – Asar tahlili, ushbu Nizomning 1-ilovasida tasdiqlangan asarlar orasidan ishtirokchi tomonidan 1 ta asarni tasodifiy, ya‘ni avtomatik generatsiya yo‘li bilan tanlaydi. Tanlangan asar nomi kotib tomonidan chop etiladi va ishtirokchiga taqdim etiladi. Asarni qayta tanlashga, o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Asar tahlili uchun ishtirokchiga tayyorlanish uchun bir daqiqa, tahlil namoyishi uchun besh daqiqa vaqt ajratiladi.

22. Asar tahlili ushbu Nizomning 2-ilovasida tasdiqlangan baholash mezonlari asosida Hakamlar hay'atining har bir a'zosi tomonidan 5 ballgacha baholanadi. Bunda, kotib tomonidan Hakamlar hay'atining har bir a'zosi tomonidan qo'yilgan ballar umumlashtiriladi.

23. Hakamlar hay'ati ishtirokchilarning ikki yo‘nalish bo‘yicha natijalarini hisobga olgan holda 1-3-o‘rin g‘oliblarni e‘lon qiladi.

24. Ushbu bosqichda 1-o'rinni olgan ishtirokchi keyingi bosqichda ishtirok etish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

## **3-§. Uchinchi bosqich – Respublika bosqichini o‘tkazish tartibi**

25. Tanlovning uchinchi bosqichi 19-20 avgust kunlari “Olmos” konvension markazida Respublika tashkiliy qo‘mitasi tomonidan o‘tkaziladi.

26. Tanlovning **uchinchi bosqichi** quyidagi uch yo‘nalishda o‘tkaziladi:  
**birinchi yo‘nalish** – intellektual o‘yin;

**ikkinchi yo‘nalish** – asar tahlili;

**uchinchi yo‘nalish** – erkin mavzuda ijodiy chiqish (she'rxonlik, monolog va

h.k) shaklida o‘tkaziladi.

27. **Birinchi yo‘nalish** Intellektual o‘yin ushbu Nizomning 7-14-bandlarida belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

28. **Ikkinchi yo‘nalish** Asar tahlili ushbu Nizomning 1-ilovasida tasdiqlangan asarlar orasidan ishtirokchi tomonidan 1 ta asarni tasodifiy, ya’ni avtomatik generatsiya yo‘li bilan tanlaydi. Tanlangan asar nomi kotib tomonidan chop etiladi va ishtirokchiga taqdim etiladi. Asarni qayta tanlashga, o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Asar tahlili uchun ishtirokchiga tayyorlanish uchun bir daqiqa, tahlil namoyishi uchun besh daqiqa vaqt ajratiladi.

29. Asar tahlili ushbu Nizomning 3-ilovasida tasdiqlangan baholash mezonlari asosida Hakamlar hay’atining har bir a’zosi tomonidan 5 ballgacha baholanadi. Bunda, kotib tomonidan Hakamlar hay’atining har bir a’zosi tomonidan qo‘yilgan ballar umumlashtiriladi.

30. **Uchinchi yo‘nalish** – erkin mavzuda ijodiy chiqish (sherxonlik, monolog va h.k) shaklida o‘tkaziladi.

Ishtirokchilar erkin mavzuning mavzusi va shakli haqida ma’lumot va materiallarni (videorolik, taqdimot va boshqalar) 15 avgustgacha (shu kuni ham) Respublika tashkiliy qo‘mitasiga hududiy tashkiliy qo‘mita orqali taqdim etadi.

Ushbu yo‘nalish uchun umumiy 5 daqiqa vaqt ajratiladi.

Mazkur yo‘nalish ushbu Nizomning 4-ilovasida tasdiqlangan baholash mezonlari asosida Hakamlar hay’atining har bir a’zosi tomonidan 5 ballgacha baholanadi. Bunda, kotib tomonidan Hakamlar hay’atining har bir a’zosi tomonidan qo‘yilgan ballar umumlashtiriladi.

31. Hakamlar hay’ati ishtirokchilarning uch yo‘nalish bo‘yicha natijalarini hisobga olgan holda g‘oliblarni (1-3-o‘rin) e’lon qiladi.

32. Ishtirokchilarga tanlov bosqichlarida materiallarni bir-biriga uzatish va boshqalarga yordam berish, o‘zaro gaplashish, uyali telefon yoki boshqa aloqa va telekommunikatsiya vositalarini olib kirish va foydalanish qat’iyan taqiqlanadi.

33. Tanlov bosqichlarini o‘tkazishning belgilangan tartibini buzgan ishtirokchilar tanlovdan chetlashtiriladi va bu haqida kotib tomonidan dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

34. Nogironligi mavjud shaxslar tanlovda hamrohi (kuzatuvchi) bilan birgalikda (*yoki qonunchilikda belgilangan tartibda*) ishtirok etishi mumkin.

35. Tanlov o'tkazish jarayoni professional videotasvirga tushiriladi. Videotasvirdan nusxa ko'chirish taqiqlanadi. Tashkiliy qo'mitalar tanlov o'tkazilgan kunning ertasiga Respublika tashkiliy qo'mitasiga videotasvirni taqdim etadi.

### **III bob. Hakamlar hay'ati tarkibi**

36. Tanlov birinchi va ikkinchi bosqichi bo'yicha Hakamlar hay'ati tarkiblari ushbu nizomning 4-5-ilovalariga muvofiq hududiy tashkiliy qo'mitalar tomonidan tasdiqlanadi.

Tanlovning uchinchi bosqichi bo'yicha Hakamlar hay'ati tarkibi ushbu nizomning 6-ilovasiga muvofiq Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Hakamlar hay'ati tarkibi rais, kotib va a'zoldan iborat bo'ladi.

Ayni bir shaxs bir vaqtning o'zida ham Tashkiliy qo'mita, ham Hakamlar hay'ati a'zosi bo'lishi mumkin emas (kotib bundan mustasno).

37. Hakamlar hay'atining asosiy vazifalari:

- tanlov ishtirokchilarini ochiqlik va oshkoralik, adolat tamoyillariga tayangan holda xolisona baholash;

- har bir shartda qo'ygan ballarini izohlash, ishtirokchilar tomonidan norozilik holatlari kelib chiqqan taqdirda ballarni xolisona qo'yganligini isbotlab berish;

- Hakamlar hay'ati a'zolari bilan kelishgan holda ish olib borish;

- ballar teng kelib qolgan taqdirda Hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan qo'shimcha savollar berish;

- tanlovni yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlash.

### **IV bob. Tanlov g'oliblarini rag'batlantirish**

38. Tanlovning birinchi bosqichida eng yaxshi natija ko'rsatgan 3 nafar ishtirokchi g'olib sifatida e'tirof etilib, ular tegishli diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

39. Tanlovning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar diplom hamda quyidagi mukofotlar bilan rag'batlantiriladi:

***Ikkinchi bosqichda:***

1-o'rin – televizor;

2-o'rin – “book reader”;

3-o'rin – smart soat.

***Uchinchi bosqichda:***

1-o‘rin – 20 000 000 so‘m;

2-o‘rin – 15 000 000 so‘m;

3-o‘rin – 10 000 000 so‘m.

40. Tanlovda faol hamda munosib ishtirok etgan ishtirokchilar tanlovning barcha bosqichlarida quyidagi nominasiyalar bo‘yicha taqdirlanishi mumkin:

- “Eng yaxshi notiq”;

- “Eng yosh kitobxon”

- “Eng faol ishtirokchi”.

41. Tanlov g‘oliblari hamkor tashkilotlar va homiylar tomonidan ham esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanishi mumkin.

**V bob. Tanlovni moliyalashtirish manbasi**

42. Tanlov grantlar, texnik ko‘mak va boshqa tashqi beg‘araz ko‘mak mablag‘lari hamda homiylar va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi.

**VI bob. Tanlovning yakuniy qoidalari**

43. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

**“Zukko kitobxon” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha  
Respublika tashkiliy qo‘mita  
TARKIBI**

<b>Sh. Rabiyev</b>	–	Adliya vaziri o‘rinbosari, <i>Tashkiliy qo‘mita raisi</i>
<b>I. Rustambekov</b>	–	TDYU prorektori, <i>Tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari</i>
<b>Z. Tulyaganov</b>	–	Adliya vazirligi boshqarma boshlig‘i, <i>Tashkiliy qo‘mita raisi</i>
<b>T. Bekbutayev</b>	–	Adliya vazirligi boshqarma boshlig‘i, <i>Tashkiliy qo‘mita raisi</i>
<b>A. Mirzaboyev</b>	–	Adliya vazirligi mas‘ul xodimi, <i>Tashkiliy qo‘mita kotibi</i>

**Izoh:** Tashkiliy qo‘mita a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ko‘rsatilgan lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar birlashtiriladi.

**“Zukko kitobxon” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha  
hududiy tashkiliy qo‘mita  
TARKIBI**

<b>Lavozimga ko‘ra</b>	–	Qoraqalpog‘iston Respublikasi adliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig‘i, <i>Tashkiliy qo‘mita raisi</i>
<b>Lavozimga ko‘ra</b>	–	Hududiy Yuridik texnikum direktori, <i>Tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari</i>
<b>Lavozimga ko‘ra</b>	–	Adliya organi Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi,

**Izoh:** Tashkiliy qo‘mita a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, lavozimga tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar birlashtiriladi.

**“Zukko kitobxon” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha  
tuman (shahar) tashkiliy qo‘mita**

**TARKIBI**

<b>Lavozimga ko‘ra</b>	–	Tuman (shahar) adliya bo‘limi boshlig‘i, <i>Tashkiliy</i>
<b>Lavozimga ko‘ra</b>	–	Tuman (shahar) davlat xizmatlari markazi shu‘ba
<b>Lavozimga ko‘ra</b>	–	Tuman (shahar) Yuridik xizmat ko‘rsatish markazi mutahassisi, <i>Tashkiliy qo‘mita kotibi</i>

**Izoh:** Tashkiliy qo‘mita a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, lavozimga tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar biriktiriladi.

**“Zukko kitobxon” tanlovini Respublika bosqichini o‘tkazishda  
yordam beruvchi ishchi guruh**

**TARKIBI**

<b>Sh. Yuldasheva</b>	–	Adliya vazirligi boshqarma boshlig‘i, <i>Ishchi guruh rahbari</i>
<b>A.Hamdamov</b>	–	Adliya vazirligi bosh maslahatchisi – boshlovchi
<b>A. Abdumalikov</b>	–	Adliya vazirligi yetakchi maslahatchisi – tashkiliy yordamchi
<b>R.Yuldashboyev</b>	–	Adliya vazirligi katta maslahatchisi – yordamchi
<b>O. Abdupattaxova</b>	–	Adliya vazirligi boshqarma ish yurituvchisi – tashkiliy yordamchi

**Izoh:** ishchi guruh a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ko‘rsatilgan lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar biriktiriladi.



**“Zukko kitobxon” tanlovi ishtirokchilari uchun  
tavsiya etiladigan asarlar**

**R O‘ Y X A T I:**

**Milliy adabiyot:**

1. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”.
2. Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon”.
3. Abdulhamid Cho‘lpon “Kecha kunduz”.
4. Abdulla Avloniy. “Turkiy Guliston yoxud axloq”.
5. Oybek. “Navoiy”.
6. Abdulla Qahhor hikoyalari.
7. Pirmul Qodirov. “Yulduzli tunlar”.
8. O‘tkir Hoshimov. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”.
9. Tog‘ay Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”.
10. Ulug‘bek Hamdam. “Muvozanat”
11. Baxtiyor Abdug‘afur. Madaminbek. Qonli gullar vodiysi
12. Tohir Malik. “Alvido bolalik”
13. Nazar Eshonqul. “Maymun yetaklagan odam”
14. To‘lepbergan Qaypbergenov “Rahmat, muallim”
15. Murodboy Nizanov “Aqchagul”

**Jahon adabiyoti:**

16. Chingiz Aytmatov. “Oq kema”;
17. Lyusyen Keren. “Amir Temur saltanati”;
18. Ernest Xeminguey. “Chol va dengiz”;
19. Lev Tolstoy. “Hojimurod”;
20. Ayzek Azimov. “Men robotman”;
21. Uolter Ayzekson. “Stiv Jobs”;
22. Robert Kiosaki. “Boy ota, kambag‘al ota”;
23. Genri Ford. “Mening hayotim, mening yutuqlarim”.
24. Aziz Nesin hikoyalari
25. Frans Kafka. “Jarayon”
26. Somersset Moem. “Oy va chaqa”
27. Gabriel Garsia Markes. “Yolg‘izlikning yuz yili”.
28. Migel De Servantes. “Don Kixot”
29. Alber Kamyu. “Begona”.
30. Mixail Bulgakov. “Usta va Margarita”

**Bolalar adabiyoti:**

31. Xudoyberdi To‘xtaboyev “Sariq devni minib”;

32. A. Sent-Ekzyuperi “Kichkina shaxzoda”;
33. Mark Tven “Tom Soyerning sarguzashtlari”;
34. Daniyel Defo “Robinzon Kruzo”
35. Lyuis Keroll “Alisa mo‘jizalar mamlakatida”.
36. Jyul Vern “Kapitan Grant bolalari

**Prezident asarlari va ijtimoiy siyosiy kitoblar:**

37. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”;
38. Shavkat Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash”;
39. Nizomilmulk “Siyosatnoma”;
40. Makiavelli “Hukmdor”;
41. Amir Temur “Temur tuzuklari”;

**Huquqiy adabiyot:**

42. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

### Asar tahlili bo‘yicha baholash mezonlari

T/r	Baholash mezonlari
1.	Tanlangan asarning maqsadga muvofiqligi: ishtirokchining bilimi va kasbiy mahoratini rivojlantirishga ko‘maklashish ahamiyatiga ega ekanligi
2.	Tahlilda mustaqil fikrlash va dunyoqarashning, shaxsiy munosabatning aks etganligi
3.	Tahlilning asoslar va argumentlarga boyligi, qiyosiy vatanqidiy usullardan samarali foydalanganlik
4.	Nutqning ravonligi, chiroyliligi
5.	Faktik xatolar yo‘qligi

**Eslatma:** tahlilda asarning mazmunini to‘liq hikoya qilib berish taqiqlanadi, faqat zarur o‘rinlarda eslatmalar, epizodlar, ma’lumotlar va iqtiboslardan foydalanish mumkin. Tahlil ishtirokchining o‘z fikr-mulohazalaridan iborat bo‘lishi lozim. Yondashuv va shakl originalligi olqishlanadi.

### Asar tahlili bo‘yicha baholash mezonlari

<b>T/r</b>	<b>Baholash mezonlari</b>
1.	Tanlangan asarning maqsadga muvofiqligi: ishtirokchining bilimi va kasbiy mahoratini rivojlantirishga ko‘maklashish ahamiyatiga ega ekanligi
2.	Tahlilda mustaqil fikrlash va dunyoqarashning, shaxsiy munosabatning aks etganligi
3.	Tahlilning asoslar va argumentlarga boyligi, qiyosiy va tanqidiy usullardan samarali foydalanganlik
4.	Tanlangan asar muallifining hayoti va ijodi hamda tanlangan asarning yozilish tarixini yoritib berilganligi, faktik xatolar yo‘qligi
5.	Nutqning ravonligi, chiroyliligi

**Eslatma:** tahlilda asarning mazmunini to‘liq hikoya qilib berish taqiqlanadi, faqat zarur o‘rinlarda eslatmalar, epizodlar, ma’lumotlar va iqtiboslardan foydalanish mumkin. Tahlil ishtirokchining o‘z fikr-mulohazalaridan iborat bo‘lishi lozim. Yondashuv va shakl originalligi olqishlanadi.

### **Erkin mavzuda ijodiy chiqish bo‘yicha baholash mezonlari**

<b>T/r</b>	<b>Baholash mezonlari</b>
1.	Erkin mavzuga ijodiy yondashuv va kreativlik mavjudligi
2.	Erkin mavzuda mustaqil fikrlash va dunyoqarashning, shaxsiy munosabatning aks etganligi
3.	Nutqning ravonligi, chiroyliligi

**“Zukko kitobxon” tanlovining birinchi bosqichi bo‘yicha  
Hakamlar hay‘ati  
TARKIBI**

<b>Lavozimga ko‘ra</b>	–	Tuman (shahar) Yuridik xizmat ko‘rsatish markazi rahbari, <i>Hakamlar hay‘ati raisi</i>
<b>Lavozimga ko‘ra</b>	–	Tuman (shahar) davlat xizmatlari markazi direktori
<b>Lavozimga ko‘ra</b>	–	Tuman (shahar) FHDYO mudiri
<b>Lavozimga ko‘ra</b>	–	Tuman (shahar) adliya bo‘limi bosh maslahatchisi, <i>Hakamlar hay‘ati kotibi</i>

*Izoh: Hakamlar hay‘ati a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, lavozimga tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar birlashtiriladi.*

**“Zukko kitobxon” tanlovining ikkinchi bosqichi bo‘yicha  
Hakamlar hay‘ati  
TARKIBI**

<b>Lavozimga ko‘ra</b>	–	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Yozuvchilar uyushmasi rahbari <i>Hakamlar hay‘ati raisi</i>
<b>Lavozimga ko‘ra</b>	–	Qoraqalpog‘iston Respublikasi adliya vaziri o‘rinbosari, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari
<b>Lavozimga ko‘ra</b>	–	Hududiy Yuridik texnikum derektori
<b>Lavozimga ko‘ra</b>	–	Hududiy Manaviyat va marifat markazi mas‘ul xodimi <i>(kelishuvga ko‘ra)</i>
<b>Lavozimga ko‘ra</b>	–	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmasi Inson resurslari shubasi bosh maslahatchisi, <i>Hakamlar hay‘ati kotibi</i>

*Izoh: Hakamlar hay‘ati a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, lavozimga tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar birlashtiriladi.*

**“Zukko kitobxon” tanlovining uchinchi bosqichi bo‘yicha  
Hakamlar hay‘ati  
TARKIBI**

<b>Kelishuvga ko‘ra</b>	–	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mas‘ul xodimi, <i>Hakamlar hay‘ati raisi</i>
<b>Soatova Shahnoza Mirzarahimovna</b>	–	Vazir maslahatchisi
<b>Tojiyev Furqat Shomurodovich</b>	–	Adliya vazirligi boshqarma boshlig‘i
<b>Xashimxonov Axrorxon Muminovich</b>	–	TDYU birinchi prorektori
<b>Qo‘chqorov Raxmon</b>	–	TDYU o‘qituvchisi
<b>Mirzaboyev Azimjon Anvar o‘g‘li</b>	–	Adliya vazirligi mas‘ul xodimi, <i>Hakamlar hay‘ati kotibi</i>

*Izoh: Hakamlar hay‘ati a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, lavozimga tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar biriktiriladi.*